

94(575.1):711.4(09)(575.1)

1991-2023-YILLARDA O'ZBEKISTON HUDUDLARI ANTIK DAVR SHAHARLARIDA ARXEOLOGIK IZLANISHLAR NATIJALARI.

Karimov Zafar Bekturdiyevich

Urganch davlat universiteti Tarix kafedrası o'qituvchisi

Annatsiya: *O'zbekiston hududida insoniyat mehnat faoliyatlari natijasida vujudga kelgan qadimgi shaharlar jahon sivilizatsiyasining muhim bir qismi sifatida ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Insoniyat tarixida yozuv vujudga kelguniga qadar bo'lgan tarixini o'rganishda moddiy ashyolarning o'rni muhim hisoblanadi. Shu jihatdan, qadimgi arxeologik yodgorliklar o'zbek xalqi ma'naviy boyligi, umumbashariy qadriyatlarining isboti hamdir. Shuni inobatga olib maqolada 1991-2023-yillarda O'zbekiston hududlari antik davr shaharlarida arxeologik izlanishlar natijalari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Akshaxanqal'a, Xiva, Xazorasp, Dalvarzintepa, Afrosiyob, Ko'ktepa, Quva, Kampirtepa.*

Аннотация: *Древние города, построенные усилиями человека на территории Узбекистана, сыграли существенную роль в мировой цивилизации. Роль материальных объектов в истории человечества до изобретения письменности имеет решающее значение для понимания прошлого. В этой связи исторические археологические памятники демонстрируют духовное богатство и общечеловеческие идеалы узбекского народа. Принимая это во внимание, в статье оцениваются результаты археологических исследований древних городов Узбекистана с 1991 по 2023 год.*

Ключевые слова: *Акшаханкала, Хива, Хазорасп, Далварзинтепа, Афросиаб, Коктепа, Кува, Кампиртепа.*

Annotation: *Ancient towns built by human effort on Uzbekistan's territory have played an essential role in world civilization. The role of material objects in human history prior to the invention of writing is critical to understanding the past. In this regard, historical archeological sites demonstrate the spiritual wealth and universal ideals of the Uzbek people. Taking this into account, the article assesses the results of archaeological research in Uzbekistan's ancient cities from 1991 until 2023.*

Key words: *Akshakhankala, Khiva, Khazorasp, Dalvarzintepa, Afrosiyab, Koktepa, Kuva, Kampirtepa.*

KIRISH

O'zbekiston hududida insoniyat mehnat faoliyatlari natijasida vujudga kelgan qadimgi shaharlar jahon sivilizatsiyasining muhim bir qismi sifatida ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Insoniyat tarixida yozuv vujudga kelguniga qadar bo'lgan tarixini o'rganishda moddiy ashyolarning o'rni muhim hisoblanadi. Shu jihatdan, qadimgi arxeologik yodgorliklar o'zbek

xalqi ma'naviy boyligi, umumbashariy qadriyatlarining isboti hamdir. Ta'kidlash joizki, tarixiy yodgorliklar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, o'z tarixiga hurmat uyg'otishda asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: "Buyuk tarixda hech narsa izziz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avloddan avlodga qoldirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir" [1], - deb ta'kidlagan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentyabrdagi 792-sonli "Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori [2] ham tariximizni tiklashda ildam qadamlardan biridir. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tarixini o'rganishda muhim hisoblangan qadimgi shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy, siyosiy va diniy markazlar vazifasini bajargan. Mil. avv IV - milodiy IV asrlarda O'zbekiston hududidagi Xorazm vohasi, Zarafshon vohasi, Surxon vohasi, Farg'ona vohasida bir qancha shaharlar vujudga kelgan. Hatto Xiva va Xazorasp singari qadimdan mavjud bo'lgan shaharlarda hozirda ham hayot davom qilib kelmoqda. Qadimgi shaharlar sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan hududlarda tashkil topgan. Ahamiyatli jihati, Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan qadimgi shaharlar jahon mamlakatlari bilan rivojlanishlar almashinuvida ham muhim rol o'ynagan.

ASOSIY QISM

XX asr adabiyotlar va mustaqillik yillaridan o'troq ziroatkor aholi tomonidan bunyod qilingan turar-joylarda arxeologik tekshirishlar natijalarini quyidagi tarixiy davrlarga ajratish mumkin.

Birinchi tarixiy davr - XIX asrning 80-yillari o'rtalari - XX asr 30-yillari boshlari

Ikkinchi tarixiy davr - XX asr 30 yillari-1940 yillari;

Uchinchi tarixiy davr - XX asr 40 yillari o'rtalari-1990 yillari;

To'rtinchi tarixiy davr - 1991-2023 yillari manbashunosligi.

To'rtinchi tarixiy davr keyingi tarixiy bosqichlarda o'ziga xos mazmun va mohiyati bilan ajralib turish xususiyatiga ega. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi faoliyati yakun topgan. Ammo mahalliy hamda xorijiy ilmiy markazlari hamkorligida arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etiladi (1992). Mustaqillik yillarida qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixini o'rganishda xilma-xil loyihalar doirasida 14 dan ziyod xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda arxeologik ekspeditsiyalar faoliyat olib borilishi natijasida ajdodlarimizning bunyodkorlik faoliyatida sug'orma dehqonchilik va shaharsozlik madaniyati sohasida erishgan yutuqlarini yoritadigan noyob manbalar olingan. Masalan, 1995-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston filliali arxeologiya bo'limi hamda Avstraliyaning Sidney Universiteti bilan hamkorlikda Beruniy tumanida Akshaxanqal'ada olib borgan arxeologik tadqiqotlar natijalari antik davr jamiyatida kechgan jarayonlarni yoritishga xizmat qiladigan manbalar olingan. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra Akshaxanqal'a yodgorligi antik davr tarixiga mansub noyob manbalar olingan. Yodgorlikning topografik joylashishi kvadrat shaklda, maydoni hajmi 380x340 metr, to'rt tomoni 2 metr yo'lakli paxsa va kvadrat g'ishtdan tiklangan mudofaa devor to'rt tomonini o'rab

olgan. Yodgorlikning ichki tuzilishi past va yuqori qismlardan iborat, shimoli-g'arbiy burchagida ibodatxona joylashgan (60x60 m). Ibodatxonaga kirishga mo'ljallangan yo'lak devorlarida tasvirlar tushirilgan. Tasvirlarning birida hukmdor bosh kiyimi yuqori qismida qushning rasmi tushirilgan [3]. Mambetullayev M. Xiva shahri ichki qismi va mudofaa devorida qazishma ishlari olib borilishi natijasida olingan ashyolar mil. avv V asrga oidligi, bu esa 1997-yilda yodgorlikning 2500 yilligi xalqaro miqysoda nishonlangan [4]. 1993-1994 yillarda M.Mambetullayev rahbarligida arxeologik guruh Xiva arki va shimoli-g'arbiy devorida kesish ishlari olib borilib, mil. avv V asrga oid ashyolar olingan. Yodgorlikni ikkinchi va uchinchi qurilish davri antik davrga to'g'ri kelgan [5]. 1996-1997-yillarda S.B.Bolelov Janubiy Xorazm hududida Toshsoqa zonasi Amudaryo so'l sohili hududida joylashgan Xumbuztepa yodgorligida qazishmalar natijasida olingan ashyolar mil. avv VII asrning ikkinchi yarmi - milodiy IV asrlarda kulolchilik markazi ekanligini asoslab bergan [6].

1996 yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti Xorazm arxeologiya mintaqaviy bo'limi M.Mambetullayev rahbarligida guruh Xazorasp sharqiy devori ichki qismida 6x4 m va shurf ishlarini olib borilgan, dastlabki madaniy qatlamidan mil. avv V asrga oid manbalar olingan [7]. 2003 yilda Xorazm Ma'mun akademiyasi arxeologiya bo'limi S.Baratov rahbarligida arxeologik guruh Xazoraspni janubi-g'arbiy burchagida qazishma ishlari munosabati bilan, ilk qurilish davrida o'rab olgan paxsa devor, yon qismi bo'ylab to'g'ri burchakli pilyastr (burj). Uning markazida eni 18 sm, balandligi 3 sm nayza o'qli shinaklarga ega bo'lgan. Ikkinchi qurilish davrida paxsa devorga kvadrat xom g'isht devor ko'tarilgan (45x45x14 sm, 40x40x10 sm). Yo'lak kengligi qum bilan to'ldirilgan. Uchinchi qurilish davrida tashqi va ichki devorlar svod (ravoq) sifatida birlashtirilgan. Tashqi devor va to'g'ri burchakli burjga 0,70-1 m paxsa devor yopishtirilgan uchinchi va to'rtinchi qurilish davri mil. avv V - milodiy IV asrlarga mansub bo'lgan [8].

O'zbekiston-Yaponiya arxeologiya ekspeditsiyasi Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumanidagi Dalvarzintepada arxeologik izlanishlarni olib borib, Kushon tarixiga oid yangi manbalarni olishga erishganlar [9]. O'zbekiston - Fransiya hamkorligida ekspeditsiya Eski Termizda tekshirish ishlari natijasida olingan ashyolar mil. avv V asrga oid ashyolar olinganligi munosabati bilan 2500 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi [10]. Shuningdek, O'zbekiston - Fransiya arxeologik ekspeditsiyasi Afrosiyobda qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar mil. avv VII asrga oid bo'lganligi aqlanib, xalqaro miqyosda yuksak saviyada o'tkazildi [11]. 2008-yilda O'zbek - Fransiya ilmiy markazlari hamkorligida arxeologiya guruhi Afrosiyob va Ko'ktepalarda arxeologik izlanishlarni davom qildirib, temir davri jamiyati rivojlanishi asosida davom etgan antik davr tarixi tadqiqotchilar nashrlarida o'z ma'nosini topgan. Ko'ktepa qurilishi I, II, III, IV xronologik davrda aks etgan bo'lib, to'rtinchi sanasi mil. avv III asrda madaniy-xo'jalik hayot yakun topgan [12]. 2001 yilda M.Turebekov rahbarligida birinchi bosqich arxeologiya talabalarini dala amaliyoti Mizdahqon yodgorligi arkida qazishma ishlarini olib borishi natijasida mil. avv IV - milodiy IV asrlarga oid manbalar madaniy-xo'jalik hayot davom etganligidan dalolat beradi, mazkur jarayon xorazmshohlar davrigacha davom etgan [13].

B.X.Matboboyev 1996-1999 yillarda Quva yodgorligida olib borgan qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar (quyi qatlamlaridan olingan ashyolar mil. avv V - IV asrlarga oid bo'lgan. S.S.Qudratov Eylatanda qazish ishlari natijasida olingan ashyolarni mil. avv IV - III asrlar bilan belgilaydi [14]. 1994-1999 yillarda Marg'ilon arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari Marg'ilonsoyda joylashgan Marg'ilon shahrida (Markaziy Farg'ona) olingan ashyolar Marg'ilon mil. avv I asr - milodiy V-VI asrgacha madaniy-hayot bo'lgan [15]. Arxeologik tadqiqotlar Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida olib borilgan. Xususan, XX asr 80 yillaridan boshlab Jizzax hududida joylashgan arxeologik yodgorliklarini arxeologik jihatidan o'rganish ishlari boshlangan. M.Pardaev xulosasiga ko'ra, Jizzax hududida Qaliyatepa, Qo'rg'ontepa va O'rdatepa yodgorliklari uy-xonalaridan olingan ashyolar mil. avv II - milodiy III asrlarga tegishli bo'lgan [16].

2007-yilda Rossiya Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti O'rta Osiyo arxeologiya ekspeditsiyasining Baqtriya guruhi xodimlari Kampirtepada qazishma ishlarini olib borishdi. Kampirtepadan ellinizm davriga xos ashyolar topib, o'rganildi [17].

Xulosa. Shu tariqa, yuqorida qayd qilingan ma'lumotlar quyidagi yakuniy xulosaga kelish imkonini yaratdi.

-O'zbekistonning antik davr madaniy-xo'jalik hududlarida (Toshkent vohasi bundan mustasno) arxeologik ekspeditsiya va guruhlarining keng qamrovli ravishda olib borgan arxeologik tadqiqotlar natijalari shaharlarni barpo qilinishi klassik darajaga ko'tarilgan. Ular mil. avv IV - milodiy IV asrlarda madaniy-xo'jalik dehqonchilik vohalarining markazlari bo'lishi bilan birga diniy-mafkuraviy vazifani ham bajargan.

-Mil. avv III asr oxiri - II asrdan e'tiboran, Toshkent vodiysini urbanizatsiyon jarayonlar qamrab olishi natijasida Kanka, Kavardan, Mingtepa va Toshkent aholi obyektlari shaharlar tuzilmasiga jalb qilingan.

-Mil. avv IV - milodiy IV asrda O'zbekistonda aholining ma'lum hududda markazlashishi, sug'orma dehqonchilik asosida shaharsozlik madaniyatini rivojlanishiga bo'lgan omil markazlashgan davlatlarning tarix sahifasidan o'rin olganligi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR:

1.Mirziyoyev Sh.M. Tinchlik, ma'rifat va bunyodkorlik yo'lida hamkorlik./"Xalq so'zi", 2016 yil 19 oktyabr.

2.<https://lex.uz/uz/docs/-4524476>

3.Xodjaniyozov G'. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari.-Toshkent,: "O'zbekiston", 2007. - B 38-42.

4.Мамбетуллаев М. Археологические обоснования возраста Хивы//Хива - Жемчужина мировой цивилизации-Ташкент,: "Узбекистон", 1997.- С 7-8.

5.Асқаров А.Хива шаҳар маданиятининг шаклланиши ва унинг асосий босқичлари /Инсониятнинг илмий ва маданий мероси"-учинчи минг йиликка. Бухоро

ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари – Тошкент, Ўзбекистон, 1997-Б.166-167.

6.Болелов С.Б. Некоторые итоги археологических работ на Хумбузтепа//ОНУ.Ташкент,: Фан. 1999, № 9-10, 85-90.

7.Мамбетуллаев М, Абдиримов Р.Исследование Хазараспа//Культурные наследие Средней Азии-Ташкент, 2002-Б.165-167.

8.Баратов С.Р. Матрасулов Ш.Археологические исследования в Узбекистане-Ташкент, «УзбМЭ», 2003-С.43-33. Собиров К, Рузимов С.Археологические работы в Хазараспе//Вестник ККО Ан РУз 2003. № 3-4-С.108-109.

9.Тургунов Б.А. Исследования Узбекско-Японской экспедиции на Дальварзинтепе-Самарканд, 2001, - С 150-158.

10.Пидаев Ш, Лериш П. Археологические работы Узбекистана-Французкой экспедиции на городище старого Термеза в 2002 г//Ўзбекистонда археологик тадиқотлар-Самарканд, 2003, № 3 - С 134-144.

11.Исомиддинов М.Х. Генезис городской культуры Самаркандского Согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в периодраннежелезного века и античности)-Ташкент,: "А.Кадири". 2002. 256 с.

12.Rapin C, M.S Isamididinov, M.Khasanov La tombe d'une princesse nomade a Koktepe prusde Samarkand.Akadymredes Ingeriptions of belles Lettres.Comptes rendues de syances. Paris. 2001.p.35-98.

13.Туребеков М.Исследование цитадели Гауркала городища Миздахкон//Археологические исследования в Узбекистане в 2001-Ташкент, 2002-С.153-155.

14.Матбобоев Б.Қадимги Кува (Кубо)// Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона-Тошкент, Фан, 2001-Б.60.

15.Анорбоев А.А. Максудов Ф. Древний Маргилан-Ташкент, Фан, 2007.Б.39.

16.Пардаев М. Қадим ва ўрта асрларда Уструшонада кечган урбанизация боскичлари ҳақида//Урбанизационные процессы в Узбекистане: История и Современность: Материалы Международной научно-практической конференции.Ташкент.част.1. 2007. -С.83.

17.Двуреченская Н.Д. Масштабное сооружение раннеэллинистического периода на Кампыртепа (Отчет о полевых исследованиях Бактрийского отряда САЭ ИА РАН в 2007 году)//Ўзбекистонда археологик тадиқотлар (2008-2009-йиллар). 7-сон, Самарканд, 2012.- Б 64-75.